

ONA YURT YODINI QALBIMGA SOLIB.....

SADRIDDIN SALIM BUXORIY

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sadridin Salim Buxoriyning ona Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va o'tli yuragidan yangragan ona yurt haqidagi misralari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Vatan, she'riyat, dard, vafo, hurriyat, o'zlik, bag'rikenglik, erk, e'tiqod.

Bilamizki, Sadridin Salim Buxoriy she'rlarining asosiy mavzusi ona Vatandir. Buxoriy haqiqatda Buxorosiga sodiq, vafodor farzand bo'lgan. Mustaqillikdan oldingi davrlarda ham Sadridin Salimov Buxoroni g'animlar qo'lidan qutqarish uchun hech bir yordamini ayamagan. Aksincha, Buxoroni obodonlashtirish uchun ko'plab fidokorliklar qilgan. Uning taxallusi Sadridin Salim emas, balki Sadridin Salim Buxoriy bo'lishiga sabab ham shudir. Oldin yashab o'tgan Buxoriylar yo'lini davom ettirish va Buxoroga munosib farzand bo'lish.

Shu sababli ham uning aksariyat she'rlari qadim Buxoroni madh etadi. Quyida biz Sadridin Salim Buxoriyning Vatan mavzusidagi she'rlarini tahlilga tortamiz.

BUXOROGA BUXORO KELDI

(Shu nomli turkumdan)

Buxoroning obidalari

Ming yillardan beradi xabar:

«Xor bo'lasan, mute' bo'lasan,

Buyukliging unutsang agar!»

Buxoroning obidalari

Hikmat erur moziydan, inon:

«Buyuklarni buyuk aylagan

E'tiqodu erk hamda iymon!»

Buxoroning obidalari

Har kun yangi hikmat aytadi,

O'tmishni-da, kelajakni-da
Men tomonga olib qaytadi.

“Buxoroning obidalar...” she’rini o’qir ekanmiz, beixtiyor xayolimizga Minorayi kalon, Ark qo’rg’oni, 7 pir obidalar ko’z oldimizga keladi. Buxoroning obidalarida e’tiqod , erk, iymon jamlangan. Ularning buyukligini unutsak, erk, iymon va e’tiqodimizni ham unutimiz demoqchi shoir.

Shu bilan birga, Buxoroning obidalar moziydanda, kelajakdanda bizga hikmat olib kelishi, ularning bag’rida butun ezguliklar jam bo’lgan. Ularni har ko’rganimizda, buyuklarning bizga qoldirgan hikmatlari xayolimizni chulg’aydi.

BUXOROYI SHARIF

Bu shoh asar, buni ko’rmoqqa
Farang kelar, olmoni kelar.
Uzoq-yaqin yurtning shoh-faqir,
Yaxshi hamda yomoni kelar.

Bu shoh asar, buni ko’rmoqqa
Zax kelmoqda, sho’rob kelmoqda.
Paxtazori bilan bostirib
Shior bilan xitob kelmoqda.

O’zining shoh asarlarini
Aylab qo’yib yer bilan yakson —
Sen!
Ne uchun kelmayapsan, Sen —
Ka’basini yo’qotgan Inson?!

Bugungi kunda O’zbekistonning tarixiy markazlari, ya’ni Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi shaharlar turistik zonalar sifatida bir necha yillardan buyon xorijlik mehmonlarga xizmat qilib kelmoqda. Buxoroga ham yillardirki turistlar tashrif buyurib, uning tarixiy obidalarini o’rganishmoqda. Shoir ham she’rning ilk misralarida “Bu shoh asar, buni ko’rmoqqa, Farang kelar, olmoni kelar” der ekan Buxoroni buyuk bir shoh asarga qiyoslamqda. Bu shoh asarni ko’rish uchun esa dunyoning 4 tomonidan mehmonlar keladi.

Keyingi misralarda esa shoir Buxoroni Ka'baga qiyos qilib , Buxoroni tark etib, chet ellarga ketayotgan yoshlarga da'vat qilgan.

Umuman olganda, shoirning 100 dan ortiq she'rlari Vatan madhiga bag'ishlagan. Ularning barida shoirning o'tli qalbidan chiqan muhabbat kuylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Azimova M.S. Sadridin Salim Buxoriy – essenavis. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022-yil 11/4-son. B-105-107
- 2.Azimova M.S. Sadridin Salim Buxoriy she'riyatida tut obrazi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi O'zA ilm-fan bo'limi electron jurnali. 2012-yil dekabr 12-soni. –B.197-201.
- 3.Azimova M.S. Sadridin Salim Bukhary as a Great Essay Writer. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. Volume 02, Issue 01, 2024. P. 441-443
- 4.Azimova M.S. Obidalarni kuylagan muarrix shoir. "Davlat tili taraqqiyot va milliy yuksalish mezoni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2020-yil 16-oktabr. B. 548-550